

huquq instituti huquq bo'limi xodimlari boshchiligida uch jilddan iborat " O'zbekiston sovet davlat va huquqi tarixi" nomli kitob muallifi, O'zbekiston SSR jinoyat va jinoyat-protsessual kodeksi loyihasining ko'pgina normalarini o'zgartirish va yaxshilashga doid qimmatli takliflar muallifi hamdir. Xadicha Sulaymonova ko'plab ilmiy tadqiqot ishlariga boshchilik qildi. Uning bu yo'ldagi xizmatlari beqiyosdir. Shu sababli bugungi kunda Adliya vazirligi huzuridagi Respublika sud ekspertizasi markazi akademik X. Sulaymonova nomi bilan yuritiladi.

Xadicha Sulaymonova butun umrini ilimga, xayrli ishlar yo'liga sarfladi. Umrining eng so'nggi yillarida aytgan quyidagi jumalari kuchli tarbiyabiy ahamiyatga ega: "Menga hech bo'lmasa yana bir yilcha umr kerak edi, bir yil... ilmiy fikrlarimni yozib qoldirishim uchun¹⁴¹"

Nafaqat o'sha zamondagi, balki bugungi kunning ham ko'plab yuristlar ustozlari, yuksak insoniy fazilatlar egasi Xadicha Sulaymonova 1965-yil 26-noyabr 52 yoshda og'ir xastalikdan vafot etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET MANBALARI:

1. "O'zbekning olimi ayoli Xadicha Sulaymonova" Z.N Talipova, M.S Talipova. Toshkent.2023
2. <https://drive.google.com/file/d/1wo1LXPbFIB3bYw113K1XvRSv4zR6qsXP/view>

¹⁴¹ "Sovet O'zbekiston" gazetasi 1968-yil 15-avgust.